



O`ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim yo`nalishi talabasi Olimqulov Yashnar Maxmadamin o`g`li, Nominov Abdusalim Valijon o`g`li, Narziyev Furqat Fayzullo o`g`li, Xudoyqulova Sabohat Islom qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbekiston respublikasining geografik o`rni, dunyo hamjamiyatida tutgan nufuzi, urbanizatsiyasi, shahar va qishloq aholisi tarkibi, shaxarlar soni haqida so`z boradi. Urbanizatsiya jarayonining bugungi kundagi holati, takliflar, e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Urbanizatsiya, shahar, qishloq, aholi, O`zbekiston, viloyat, tumanlar, manzilgoh.

Abstract: This article talks about the geographical position of the Republic of Uzbekistan, its influence in the world community, urbanization, urban and rural population structure, and the number of cities. The current state of the urbanization process, proposals, aspects that should be paid attention to are highlighted.

Key words: Urbanization, city, village, population, Uzbekistan, region, districts, settlement.

Urbanizatsiya - aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishida ijobiy o`zgarishlarga, uning turmush tarzi hamda madaniyati sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga ko'maklashuvchi jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishda shaharlarning ro'lini oshirish, shuningdek, shahar infratuzilmasini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Ushbu rasmlar viloyatlar kesimida urbanizatsiya holatini tasvirlaydi. Viloyatlarning qaysi qismida urbanizatsiyani rivojlantirish kerakligi, aholining zich joylashuvi tasvirlangan.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra, O`zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 34 191,7 ming kishini tashkil etib, birinchi yil 286,5 ming kishiga yoki 0,85% ga o'sdi.

O`zbekiston Respublikasida bugungi kunda shahar aholisi – 17 487 ming kishi (50.6%), Qishloq aholisi – 17 071.4 ming kishi (49.4%) tashkil etadi. Urbanizatsiya uzoq va keng jarayon. Bu migratsiya jarayonlari, yer boshqaruvi samaradorligi, shahar rejalashtirish, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va uy-joy qurilishi masalalarini o`z





ichiga olgan bir qator masalalar va harakatlar bo‘lib, shahar aholisining o‘shishi bilan birga keladi

Respublika mustaqillikka erishganidan so‘ng, mamlakatimiz hududiy tuzilmasining o‘zagini tashkil qiluvchi shaharlar tizimini takomillashtirish, ulaming mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan to‘g‘ri hamda samarali foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Binobarin, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi shaharlar to‘ri va tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika urbanistik tarkibidagi o‘zgarishlari va shu bilan birga, jahon urbanizatsiyasining mamlakatga xos jihatlari hamda ta‘sirini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Ta‘kidlash joizki, respublika hukumati tomonidan urbanistik tizimni takomillashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zR Prezidentining 2005-yil 14-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma‘muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, 2009-yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturining qabul qilinishi bilan qishloq joylaming ishlab chiqarish va infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri qilib belgilandi. Qishloqlarda zamonaviy infratuzilma tizimini barpo etish, bu joylarga sanoatni olib kirish, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini yaxshilash, urbanizatsiyaning ichkaridan, o‘ziga xos «yashirincha» rivojlanishini anglatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, mamlakatimiz shaharlar geografiyasi 965 taga ko‘paydi. 2016-yil 5-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori shular jumlasidandir. Ma‘lumki, har bir mamlakat hududiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati eng avvalo uning urbanistik va hududiy urbanistik tarkibida o‘z aksini topadi. “Hududiy urbanistik tarkib” tushunchasi fanga taniqli olim I.M.Maergoyz tamonidan kiritilgan bo‘lib, u turli mintaqalarda shaharlar to‘ri, xususan, katta shaharlar qay tarzda shakllangan va rivojlanganligi bilan bog‘liq. Respublika mintaqalari urbanistik tarkibi, o‘zining genetik xususiyati, funksional tiplari va katta-kichikligiga ko‘ra farqlanadi. Jumladan, mustaqillik






arafasida mamlakatda jami 123 ta shahar va 104 ta shaharchalar mavjud edi (urbanizatsiya darajasi 40,8 foiz).

1992-yilga kelib, respublika geourbanistikasida o'ziga xos vaziyat yuz berdi. Mazkur yilda turli mintaqalarda 17 ta shaharchalar vujudga keldi. Ular, Jizzaxda - Zarbdor va Zafarobod, Samarqandda - Mirbozor, Sirdaryoda - Do'stlik, Toshkentda - Yangi Chinoz, Qashqadaryoda - Nuriston, Qoraqalpog'iston Respublikasida - Akshaloq va Qozonketken (AtaMirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev A., 2002). Shu yili sust urbanizatsiyalashgan Surxondaryoda shaharlar to'ri birdaniga 5 ta (Angor, Do'stlik, Sariq, Hurriyat va Elbayon)ga kengaydi va bu mintaqada zamonaviy transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanishi bilan izohlanadi. Aksincha, Xorazm viloyatidagi Gurlan, Xonqa, Shovot va Xazorasp kabi shaharlar, shaharchalar qatoriga tushib qoldi. 1994-yilga kelib Samarqand viloyatidagi Payariq, 1995-yilda esa Buxoro viloyatidagi Shofirkon tuman markazlari sifatida shahar maqomiga ega bo'ldi (Mavlonov A., 2015).

Aytish joizki, 2000-yildan yangi urbanistik islohotlar davrigacha atigi 2 ta shaharcha vujudga keldi, xolos. 2004-yilda qadimiy Karmana Navoiy shahridan ajratilib, shaharcha sifatida ro'yxatga olindi. Qo'ng'iroq tumanida Elobod shaharchasi tashkil topganidan so'ng, O'zbekiston shaharlar geografiyasida o'zgarish qayd etilmadi (2005 y.). Qoraqalpog'istonning shaharlar to'ri esa shu yilda ikkita shaharchaga kamaydi. Nukusning yo'ldosh shaharchalari (Qizketkan va Pristanskiy) uning poytaxti tarkibiga birlashtirildi. 2000-yildan keyingi davrda respublika va uning mintaqalarida shaharlar to'ri va tizimining shakllanishi, urbanizatsiya jarayoni o'zgacha tus olmoqda. 2016-yil ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston Respublikasining 50,6 foiz aholisi shahar joylarida istiqomat qiladi. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi pasayib bormoqda. Urbanizatsiya darajasining o'zgarishi hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanishi, yangi shahar manzilgohlarining paydo bo'lishi, aholining tabiiy ko'payishi, shuningdek, tashqi migratsiya kabi omillarga bog'liq holda kechadi.

O'zbekistonda jami shaharlardan viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar soni 25 ta, tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar 93 ta bo'lib, yagona poytaxt shahar respublikaga bo'ysunadi. Eng ko'p shaharlarga ega bo'lgan viloyat Toshkent viloyati (16 ta shahar), eng kam shaharlar esa Xorazm viloyatida - 3 ta. 2009-yilda bo'lgan tarkibiy o'zgarishlardan so'ng, jami shaharchalar soni 1079 taga teng bo'ldi. Eng ko'p






ISSN (E): 2181-4570

shaharchaga ega bo'lgan viloyatlar: Farg'ona - 197 ta, Qashqadaryo - 123 ta va Namangan 120 ta. Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharchalar soni eng kam (2-jadval).

2-Jadval

O'zR hududlari	Shahar aholisi soni, ming kishi	Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar	Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar	Shaharchalar soni
O'zbekiston Res	14305.9	25	93	1079
Qoraqalpog'iston	817.1	1	11	26
viloyatlar:				
Andijon	1343.9	2	9	78
Buxoro	776.3	2	9	62
Jizzax	523.9	1	5	42
Navoiy	420.8	2	4	38
Namangan	1447.0	1	7	120
Samarqand	1150.3	2	9	88
Sirdaryo	294.7	3	2	21
Surxondaryo	762.3	1	7	114
Toshkent	1284.9	4	12	97
Farg'ona	1789.6	4	5	197
Xorazm	526.7	1	2	58
Qashqadaryo	1125.9	1	11	123
Toshkent	2371.3	-	-	1

O'zR viloyatlarining shahar aholi manzilgohlari (01.01.2016 y. holatiga)






Hozirda respublikadagi eng urbanizatsiyalashgan mintaqa Namangan viloyati hisoblanadi. Shuningdek, Farg‘ona (57,0 %) va Andijon (52,4 %) viloyatlarida ham shahar aholisining salmog‘i respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha baland. Urbanizatsiya darajasi mamlakat ko‘rsatkichidan past mintaqalarga - Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari mansub. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, ayrim mintaqalarning yangi urbanistik salohiyati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy) real vaziyatni o‘zida aks ettirmaydi. Respublikada yangi urbanistik islohotlardan so‘ng, 2009-yilda 1199 ta shahar manzilgohlari qayd etilgan. Ularning 966 tasi yangi tashkil etilgan shaharchalarga mos keladi.

3-Jadval

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	1 071	1 071	1 067	1 067	1 062
Qoraqalpog‘iston Respublikas	26	26	26	26	26
Andijon	79	79	79	79	79
Buxoro	69	68	68	68	68
Jizzax	42	42	42	42	42
Qashqadaryo	117	117	117	117	117
Navoiy	47	48	46	46	46
Namangan	115	115	115	115	115
Samarqand	88	88	88	88	88
Surxondaryo	114	114	112	112	112
Sirdaryo	25	25	25	25	25
Toshkent	95	95	95	95	95
Farg‘ona	197	197	197	197	197






Xorazm	56	56	56	56	56
Toshkent sh.	1	1	1	1	1

Shaharchalar soni (yil boshiga)

Ta’kidlash joizki, ularning aksariyat qismining ishlab chiqarish salohiyati agrar xususiyatga ega ekanligi bilan ko’zga tashlanadi. Agrosaharchalarning hududiy tarkibida Farg’ona (196 ta), Qashqadaryo (119 ta), Surxondaryo (107 ta) va Namangan (109 ta) viloyatlari yuqori pog’onalami egallaydi. Yangi tashkil etilgan qishloq shaharlarining 40 foizga yaqini Farg’ona mintaqasida tarkib topgan.


O‘zbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari mamlakat mintaqalari bo‘yicha notekis taqsimlangan. Demografik salohiyati yuqori, iqtisodiyoti nisbatan barqaror bo‘lgan iqtisodiy rayonlarda shaharlar to‘ri ham yaxshi rivojlangan. Shaharlar sonining eng ko‘p miqdori hamon Farg’ona (423 ta) mintaqasiga tegishli bo‘lib, unda O‘zbekiston shahar manzilgohlarini 35,1 foizi joylashgan. Shuningdek, shaharlar soni bilan Janubiy, Zarafshon va Toshkent iqtisodiy rayonlari ham nisbatan yaxshi ta’minlangan.

2-Rasm



O‘zbekistonning siyosiy xaritasi.

Ayni paytda iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega bo‘lgan Quyi Amudaryo va Mirzacho‘l mintaqasida shaharlar to‘ri sust bo‘lib, respublika urbanistik






tizimining mos ravishda 8,2 va 6,8 foizini tashkil etadi. Aytish joizki, shaharlar tizimining murakkablashuvi, ulaming ierarxiyasini (pog'onasi) aniqlash, shaharlar o'rtasidagi vazifalarning (funktsiyalarni) taqsimlanishiga ham olib keladi. Mamlakat urbanizatsiyasining o'ziga xos jihati shaharlar zanjirida kichik shaharlar sonining ko'pligi bilan izohlanadi. Respublika iqtisodiyotning asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda ularni qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli, shaharlarning 4/5 qismidan ko'prog'ini kichik shaharlar tashkil etadi. 2009-yilda yangi shaharchalarning vujudga kelishi bilan, mazkur toifadagi shaharlarning salmog'i yana ortib ketdi.

2016-yilda 1091 ta kichik shahar va shaharchalar bo'lib, ular jami shahar manzilgohlarining 90,1 foiziga teng. O'rta bosqichdagi shaharlar soni 20 tani tashkil etib, jami shahar manzilgohlarining 1,6 foiziga mos keladi. Respublikada yirik shaharlar soni 7 ta (Samarqand, Namangan, Andijon, Qarshi, Nukus, Buxoro, Farg'ona), katta shaharlar 11 ta, "yarim o'rta" shaharlar 75 tani tashkil etadi.

Hozirda yo'l mustaqilligini ta'minlash borasida, Xalqaro logistika markazi (Angren MIZ), Jizzax maxsus industrial zonasi hamda Navoiy erkin industrial zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimiz shaharlar geografiasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2001-yil Uchquduq-Sultonuvays-Nukus, 2007-yil Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on, 2016-yil Angren-Pop temir yo'llarining foydalanishga topshirilishi mamlakat temir yo'l tizimini mustaqil yaxlit tuzilma sifatida shakllanishiga imkon berdi. Asosiysi, ushbu hududlarda joylashgan Navoiy, Uchquduq, Xalqobod, G'uzor, Dehqonobod, Boysun, Qumqo'rg'on, Miskin, Angren, Ohangaron, Yangiobod, Pop kabi shahar manzilgohlarining o'sish qutb va markazlari sifatida transport geografik o'rni yanada yaxshilandi. Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida shaharlar rivojlanishi biroz sekinlashgan bo'lsa-da, keyingi "urbanistik to'lqin" tufayli ularni soni birdaniga besh martaga ortdi.

Bunday vaziyat, shaharchalar rivojlanishining imkoniyatlari hamda asosiy yo'nalishlari, o'sish qutb va markazlarini har tomonlama o'rganishning zarurligini belgilab beradi.





ISSN (E): 2181-4570

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz - T: O'zbekiston 2017
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz - T: O'zbekiston 2017
3. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. - T.: "O'qituvchi", 1994.
4. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. - T.: Universitet, 2014.
5. Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., 2003.
6. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi. - T.: "Mumtoz so'z", 2010.
6. "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonuni
7. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asosalari I.A. Hamedov, A.M. Alimov.

